

TALABALARING O'QISH KO'NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

Azimova Guljamol Begimkul qizi,
Toshkent davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.03.1.026>

Annotatsiya. Mazkur maqolada talabalarning o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda qo'llaniladigan metodlar haqida muallifning fikr va mulohazalari bayon qilingan. Xususan, o'qishning turlariga hamda olim va metodistlarning ular haqidagi qarashlariga alohida to'xtalib o'tilgan. O'qish ko'nikmasini rivojlantirishda qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadigan autentik materiallar haqida ma'lumot berilib, turkumlarga bo'lib chiqilgan. Ushbu materillar asosida darsda qo'llash uchun qo'shimcha materiallar, dars ishlanmalari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: o'qish, ko'nikma, autentik, tur, metod, qo'shimcha material

METHODS USED IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' READING SKILLS

Azimova Guljamol Begimkul qizi,
Doctoral student of Tashkent State Pedagogical University

Abstract. This article presents the author's thoughts and opinions on the methods used in developing students' reading skills. In particular, the types of reading and the opinions of scientists and methodologists about them were specifically discussed. Information about authentic materials important for reading development is given and categorized. Based on these materials, additional materials and lesson developments are offered for use in the lesson.

Keywords: reading, skill, authentic, type, method, additional material

МЕТОДЫ, ИСПОЛЬЗУЕМЫЕ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ УЧАЩИХСЯ

Азимова Гулжамол Бегимқұл қызы,
Докторант Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье изложены мысли и мнения автора о методах, используемых в развитии навыков чтения у учащихся. В частности, специально обсуждались виды чтения и мнения о них учёных и методистов. Информация об аутентичных материалах, важных для развития навыков чтения, дана и разделена по категориям. На основе этих материалов предлагаются к использованию на уроке дополнительные материалы и разработки урока.

Ключевые слова: чтение, умение, аутентичный, тип, метод, дополнительный материал

Kirish. Ma'lumki yurtimizda chet tillarini yanada samarali o'qitishga bo'lgan e'tibor tobora kuchayib bormoqda. O'z navbatida yoshlar orasida ham qo'shimcha tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj yildan-yilga ko'payib borayotganligini e'tirof etishimiz joiz. Xususan, chet tilini o'rgangan yoshlar til egalari bilan erkin muloqot qila olishi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chet tilini o'rganish uchun yozish, o'qish, gapirish va tinglab tushunish malakalarini rivojlantirish talab etiladi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha ko'plab olimlar tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan. Xususan, o'qish deya atalgan nutq faoliyati o'tgan asrlar mobaynida faqatgina so'z boyligini oshirishga qaratilgan hamda matnlar o'rganilayotgan chet tili madaniyatini chetlab o'tgan holda, o'quvchining o'z qadriyatları, madaniyati, urf-odatlariinigina qamrab olgan. Bu esa o'z navbatida o'qish ko'nikmasi orqali erishiladigan samaradorlikni kamayishiga olib keldi. O'qish uchun olingan matn axborotni olib, uzatish maqsadida qo'llaniladi. Bunda matnlar turlicha bo'lishi mumkin. Birinchi tur verbal deb nomlanadi va so'z yordamida fikrlarni bayon qilishga qaratiladi. Ikkinci tur matnlar simbolik bo'lib, matematik formula yoki ramzlar yordamida ifodalanishi mumkin. Vizual matnlar tasviriy asarlar, xaritalarni o'z ichiga oladi.

Metodlar. Chet tilini o'qitish bo'yicha faoliyat olib borgan metodistlardan biri M. Uest ga to'xtalib o'tishni lozim ko'rdik. U o'z amaliyoti haqida shunday fikrlarni ayтиб o'tgan edi "Men turli xil o'qish tezligini o'lchab ko'rdim, ya'ni baland ovozda, past ovozda, tezkor o'qish, so'zma-so'z o'qish, ma'lum bir axborot yoki fikrni qidirib o'qish kabilar. Men shuni aniqladimki, o'qishdan avval savollardan

foydalinish, ko‘plab o‘qishdan avvalgi mashqlar bajarish o‘qish tezligini oshirishga xizmat qiladi. Ingliz tilidan ona tiliga tarjima qilish ham o‘qish tezligini oshirishi mumkinligini aniqladim.”[1, 94]

O‘qish turlari borasida metodistlarning fikrlari turlichadir. Xususan, ularni quyidagi turlarga bo‘lish maqsadga muvofiqdir:

Analitik/sintetik o‘qish-asosiy e’tibor matndagi yangi so‘z yoki iboralarni tahlil qilib tushunishga qaratiladi. Mustaqil fahmlash imkoniyati bor lisoniy birliklar potensial leksikani tashkil qiladi. Sintetik o‘qish esa matn tarkibida faqat o‘zlashtirilgan til birliklari beriladi hamda lisoniy qiyinchiliklarga duch kelinmaydi. [2, 220-227]

Tayyorlangan/tayyorlanmagan(prepared/unprepared) o‘qish turida matn o‘qishdan oldingi tayyorgarligi nazarda tutiladi. Bunda o‘quvchi ushbu matnni o‘qish texnikasidan xabardorligi yoki bilmasligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tayyorlangan turda mutoala davomida mazmunga oid bo‘lgan qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin va bu tabiiy hol hisoblanadi. Texnikaviy muammolar oldindan bartaraf etilgan bo‘ladi. Tayyorlanmagan turda esa, ham mazmunga, ham o‘qish texnikasiga oid muammolar bo‘lishi kuzatiladi. Matnning hajman katta yoki kichikligi uning murakkab yoki oson o‘qilishida jiddiy murakkablik kasb etmaydi, o‘qishga beriladigan matnning murakkablik darajasi uning tarkibidagi lisoniy, texnikaviy va nutqiy qiyinchiliklari bilan bog‘liq.

Lug‘atsiz/lug‘at yordamida o‘qish deganda o‘qishning bu turi quyidagicha talqin etiladi. Chet til o‘qitish metodikasida lug‘atsiz o‘qishni o‘rgatish metodik qoida sifatida qabul qilingan. Shu bilan birga ba’zi kichik hajmdagi matnlar lug‘at yordamida o‘qiladi va yozma tarjima qilinadi. Bunday o‘qish turi quyidagi dalillarga asoslanadi: mutolaa qilinayotgan matnda notanish so‘zlar mavjud bo‘lsa va ularni lug‘atsiz ma’nosini ochish imkoniyati bo‘lmasa ikki tillik (chet til va ona tili) lug‘atdan foydalilanadi. Boshqa hollarda berilgan matn tanish lisoniy birliklar asosida tuzilgan bo‘lsa ham yoki ayrim notanish so‘zlar uchraganda ham lug‘atsiz o‘qib axborot olish metodikada to‘g‘ri ish usuli sifatida tan olingan. Ushbu matnlarda notanish leksika talabaning potensial lug‘at boyligi tarkibiga kiritiladigan taqdirda shunday metodik yo‘l tutiladi. Xullas, lug‘at yordamida o‘qiladigan har qanday matn yozma tarjima qilinishi shart.

Yolg‘iz/xor bilan o‘qish asosan o‘qish texnikasi mashqi sifatida bajariladi va bu holatda yangi va foydali axborot olish asosiy maqsad maqomida bo‘lmaydi. Biroq yolg‘iz ovoz chiqarib o‘qishning ikki toifasi amalda qo‘llaniladi, birinchisi, aytganimizdek, o‘qish texnikasini rivojlantirish uchun va ikkinchisi, matnni ovoz chiqarib o‘zgalarga axborot yetkazish uchun o‘qish. Ikkinchini turdagiligi o‘qish, psixologlar ta’biri bilan aytganda nutq faoliyatining qo‘srimcha turlari qatorida bo‘ladi.

Ichda/Ovoz chiqarib o‘qish (silent reading/reading loudly) masalasiga kelganda shuni ta’kidlash lozimki, axborot o‘zlashtirish maqsadida eng ko‘p qo‘llaniladigan usul bu ichda (ovozi chiqarmay o‘qish). Ovoz chiqarib o‘qish esa oldingi satrlarda bayon etilganidek, o‘qish texnikasini rivojlantirish yoki o‘zga shaxslarga yozma matndan axborot yetkazish uchun o‘qish turidir. Xalqaro miqyosda chet til mutaxassislariga ma’qul va manzur bo‘lgan innovatsion o‘qish turlari - kuzatuv/tanishuv/o‘rganuv ta’lim jarayoniga keng ko‘lamda tatbiq etilgan. Bu o‘qish turlarini nafaqat rusiyabzon manbalarda balki g‘arb tillarida yozilgan metodikalarning barchasida uchratish mumkin. Ushbu turlarning ma’qul ekanligi shunda ko‘rinadiki, ularning har birida alohida matn o‘qilishi va uchalasida ham bir matnning o‘qilishi mumkinligidadir. Har ikki holatda mutolaa qiluvchining matndan olinadigan axborotlari darajalari haqida gap boradi. Kuzatuv o‘qishda matnning assosiy g‘oyasi haqida o‘quvchi fikr yuritadi. Tanishuv o‘qishda matnning umumiy mazmuniga e’tibor qaratiladi, ya’ni nima haqida gap borayotganligi o‘qish davomida aniqlanadi. O‘rganuv o‘qishda esa matnda ifoda etilgan axborotning turli qirralarini tushunib yetish tavsiya etiladi. O‘qish turlari mavzusida fikr yuritish ular bilan bevosita bog‘liq qo‘srimcha mulohazalarni bayon etishni taqozo qiladi. Jumladan, bir matn necha marta o‘qilganda tushunilishi kerak, xalqaro miqyosda tan olingan ilmiy javob quyidagicha o‘qiladigan matn bir marta mutolaa qilish yo‘li bilan tushunilishi qoida tarzida qabul qilingan. Har qanday qoidada istisno bo‘lganidek matnning u yoki bu turda o‘qilishi bir martalik, lekin bir matn uchala o‘qish turida ham bir martadan uch marta o‘qilishiga yo‘l qo‘yiladi. Yoki matn oldi topshiriqlariga ko‘ra u yoki bu turdagiligi o‘qish bir necha marta takrorlanishi ham mumkin. Aniqroq aytganda bir topshiriq bilan bir marta, qator topshiriq bilan hohlagan marta o‘qishga yo‘l qo‘yiladi. Faqat o‘rganuvda bir necha marta bir matnni o‘qish mumkin. Tartibi jihatidan oxirgi o‘rinda ta’rif-tavsfif qilinishidan qat’iy nazar ahamiyat e’tibori bilan eng muhim o‘qish turlari hisoblanadi. [3, 432]

Natijalar va Munozara. O'qish ko'nikmasini rivojlantirishda qo'shimcha materiallardan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Xususan, autentik materiallardan foydalanish o'z samarasini ko'rsatib kelmoqda. Autentik material nafaqat ushbu malakani shakllantirishga yordam beradi, balki tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati, urf-odatlardan ham xabardor qiladi. Faqat darsliklar yordamida o'rganilgan chet tili bilan aynan o'sha til egalari bilan bo'ladigan muloqot vaqtida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan tafovutlarni bartaraf etishga yordam beradi. Haqiqiy materiallar har qanday ta'lif kontekstida ajoyib manbadir. Haqiqiy material talabalarga sinfda atrof-muhitning o'zi sun'iy bo'lsa-da haqiqiy hayot tili bilan tanishishda yordam beradi.[4, 64]

Olim Gebxard asl materialarni uch turkumga ajratib, har biriga alohida to'xtalib o'tadi.

Autentik tinglash-ko'rish materiallari.

U televideniya reklamalari, viktorina shouulari, multfilmlar, yangiliklar, komediya shouulari, filmlar, seriallar, roman va hikoyalarning professional audioyozuvlari, radio reklamalari, qo'shiqlar, hujjatli filmlardan iborat. Ushbu turkum o'zining til o'rganish va o'rgatish bo'yicha samaradorligi bilan mashhur hisoblanadi. Birinchidan, ular tinglash va talaffuz qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, ingliz tili o'rganuvchilari ingliz madaniyati, urf-odatlari, munosabatlari, belgilari, san'ati, psixologik va ijtimoiy farqlarini o'rgana olishadi.

Autentik vizual materiallari.

Slaydlar, fotosuratlar, rasmlar, bolalar rasmlari, tayoqchalar rasmlari, so'zsiz ko'cha belgilari, siluetlar, jurnal rasmlari, otkritka rasmlari, so'zsiz rasqli kitoblar, markalar va rentgen tasvirlari ushbu toifaga kiritilgan bo'lib, bu har bir o'quvchining qiziqishi va tasavvurini rivojlantirish uchun juda foydali.

Autentik matn materiallari.

Oxirgi toifa o'qish qobiliyatini va so'z boyligini oshirish uchun zarur vositalar bilan to'la. Ular gazeta maqolalari, kino reklamalari, qo'shiq matnlari, restoran menyusi, ko'cha belgilari, ma'lumot broshyuralari, xaritalar, teleko'rsatuvalar, komikslar, tabriknomalar va avtobus jadvallar. [5, 3]

Quyida maqoladan autentik material sifatida foydalanib, ishlab chiqilgan mashqlar va savollarni ko'rib chiqamiz:

TO BRING BACK LOST MEMORIES

Our unconscious mind contains many millions of past experiences that, so far as our conscious mind knows, are lost forever. By means of several devices, we now know how to bring back lost memories. One method is "free association", used by psychiatrists. If a patient lets his conscious mind wander at will, it can give him clues to forgotten things which, if skillfully pursued by the doctor, will bring up whole networks of lost ideas and forgotten terrors. There are certain drugs which also help in this process; hypnotism, too, can be of tremendous value in exploring a patient's unconscious.

EXERCISE 1: Find words or phrases in the passage which mean the same as:

- a) for all time
- b) method for doing something, or for getting an intended result
- c) allow your thoughts to go from subject to subject; stop concentrating
- d) whenever, however, and as much as you want to
- e) something which suggests the answer to, or gives information about a problem
- f) try to find out more through questioning
- g) large number of things that are connected to each other
- h) something which causes very great fear
- i) very great; very important

EXERCISE 2: Choose the correct answer according to the passage.

1. According to the passage, it is possible

- A) to use drugs to cure patients of their past terrors
- B) to bring our lost memories to the surface through several methods
- C) that psychological problems develop through the inability to forget certain things
- D) that hypnotism can cause a patient to forget past terrors
- E) for most people to choose to forget about their past experiences

2. In the method of "free association"

- A) unpleasant memories are pushed into the unconscious mind
- B) the use of hypnotism is essential
- C) certain drugs are more effective than hypnotism

D) all one's millions of past experiences are easily recalled

E) the patient's co-operation is needed

3. We can conclude from the passage that

A) most psychological disorders are caused by the inability to forget certain things

B) only a skillful doctor can open up one's unconscious mind

C) our unconscious mind only contains the things we don't want to remember

D) many of one's past experiences are stored in one's unconscious mind

E) a patient can't be made aware of his forgotten experiences without drugs or hypnotism

EXERCISE 3: Complete the sentences by selecting words from Column B in EXERCISE 1.

1. I've decided not to..... the matter just now, but don't think I've forgotten about it.

2. All of you have put..... effort into the campaign, so it's thanks to you that everything is going so well.

3. The chairman has given us no..... as to what he's going to say at the meeting, so we'll just have to wait and see.

4. The language teacher has a number of..... which she can employ in order to get her students to speak.

5. The lecture was so boring that on several occasions I realized that my attention had started to.....

Xulosa. Chet tilini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonida o'quvchi ma'lumotlarni qabul qiluvchi va qayta ishlab, yetkazib beruvchi vazifasini bajaradi. Masalan, o'qish va tinglab tushunish ko'nikmalari o'quvchidan retsipient bo'lishini talab qilsa, yozish va gapishtirish ko'nikmalarini egallash jarayonida esa u prodyusentga aylanadi. Shuning uchun ingliz tili o'qituvchilar o'quv resurslari tanlovida pedagogik maqsadga ko'proq e'tibor berishlari kerak. Agar tanlov jarayonida qoniqarli javob berilsa, quyidagi savollar yordam berishi mumkin:

a. Material darsning haqiqiy maqsadi uchun yaratilganmi?

b. Material leksik manba va grammatika nuqtai nazaridan to'g'rimi?

c. Material o'quv maqsadiga mos keladimi?

d. Har qanday o'zgartirish talab qilinishi kerakmi?

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz joizki, chet tilida o'qish ko'nikmasini rivojlantirish uchun qo'llaniladigan autentik materiallarni tanlashda o'qituvchi o'quvchilarining yoshini, til bilish darajasini hamda matn mazmunini hisobga olishi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

West, M. (1960). Teaching English in Difficult Circumstances: Teaching English as a Foreign Language with Notes on the Techniques of Textbook Construction. (2nd Impression with Corrections). London, Longmans, Green.

Рахманов И.В. Методика обучения немецкому языку в VIII – X классах. Изд-во АПН РСФСР, 1956.

Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi: chet tillar oliv o'quv yurtlari(fakultetlari) talabalari uchun darslik. -Toshkent: O'qituvchi 2012.

Berardo, S. A. (2006). The use of authentic materials in the teaching of reading. The Reading Matrix, 6(2),

Siti Rahma, Muhammad Basri, Baso Jabu, (2022), The Implementation of Authentic Materials in Teaching Speaking in an Islamic Boarding School, Pinisi journal of art, humanity, social studies. Vol. 2 No.3, 2022